

84/50/12
1134

MUXAMMAD MAXMUD

HAYOT DARSI

NASIHAAT EMASDIR AYTGAN SO'ZLARIM,
YOZAMAN KO'RGANIN IKKI KO'ZLARIM.
MUXAMMAD QADDINI BUKOLMAS HECH KIM,
SINOVDA TIK TURING AZIZ DO'STLARIM.

MUXAMMAD MAXMUD

HAYOT DARSI

she'rlar

2020/4-19 yilga

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AXBOROT TEKNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
OMMAVIY KOMMUNIKATSIYA
SOHASIDAGI MONITORING MA
QASHQADARYO VILOYATI BO'LI
Kel. № 18
2017 yil 25 12

Qarshi
"Qashqadaryo ko'zgusi OAV" nashriyoti
2017 yil

U O' K821.512.133-1(081)

KBK84(5O')7

M37


Hayot darsi(she'rlar) /Muxammad Maxmud (BOBOYEV)

- Qarshi: «Qashqadaryo ko'zgusi OAV» nashriyoti, 2017y.-
64bet.

KBK 84(5O')7

ISBN 978-9943-4751-1-3

Ushbu kitob muallifning birinchi she'riy to'plami bo'lib, unda yosh ijodkor ona-Vatanga, onaga bo'lgan mehr-muhabbatini, tabiatga oshuflaligini o'z she'rlarida kishi qalbiga kira oladigan etib, tarannum etgan.



ISBN 978-9943-4751-1-3

© Muxammad Maxmud,(Boboyev), 2017 yil

© «Qashqadaryo ko'zgusi OAV» nashriyoti, 2017 yil

KATTA YO‘L BOSHIDA

Ijod ilohiy olam, muqaddas yo‘l. Bu yo‘lga shunchaki kirilmaydi. Yaratganning o‘zi ko‘ngilga soladi, ilhom beradi, yo‘llaydi. Muxammad ham mana shu yo‘l boshida. Yozganlarida dard bor, fikr bor. O‘z uslubini topish yo‘lida tinimsiz izlanayotgan yosh ijodkorlardan biri.

Qalbi aynan ishq-muhabbat bilan to‘lib toshgan Muxammadning she‘rlarida sevgi asosiy o‘rin egallagan. Ammo mas‘uliyatni ham unutmaydi, ota-ona, jamiyat oldidagi burchi, yaqinlarining qadriga yetish haqida salmoqli she‘rlari bisyor.

*Deydilar menga goho,
Bolam o‘ylab bos qadam.*

*Yigit kishining boshi,
Sinovlardadir har dam.*

kabi misralari shundan darak beradi.

Qolaversa, uning tabiat manzaralari, hayotiy kuzatuvlari asosida mulohazalari aks etgan ijod namunalari ham dilga yaqin.

Aytganimizdek, Muxammad katta yo‘l boshida. Hali o‘z ustida ko‘p ishlashi kerak. Unga bu yo‘lda ijodiy barkamollik tilaymiz.

Normamat Tog‘a,

hajvchi va detektiv yozuvchi, Gretsiyada faoliyat yuritadigan xalqaro "Antik dunyo" ilmiy akademiyasining professori, fan doktori.

INSON UMRI

Hayotda uchraydi har turli inson,
Kimdir sokin yashar kimdir shiddatli.
Dunyoda yashamoq emasdur oson,
Agar bo'lolmasang halol - qudratli.

Intilgin ey inson ezgulik tomon,
Bir joyda qotmagil sen ko'lmak misol.
Tuhmatdan, darddan asrasin omon,
Yaxshilikni o'zingga aylagil timsol.

Ba'zi ko'zi ochiqlar so'qirdan battar,
Hayotning mazmunin bilmaydi ular.
Umrini mazmunli yashasa agar,
Insonga doimo baxt-iqbol kular.

SEVGI KUYI

Osmonlarda uchadirman seni o`ylab,
Bulutlarni quchadirman seni kuylab.
Har kishiga boradirman seni so`ylab,
Jonim kelib, yonimda tur bir umr sen,
Pora qalbim bir bora ko`r sevgilim sen.

Xayolimdan ketmas sira kulishlaring,
O`zingcha bol lablaringni burishlaring.
Ibo bilan hayo ila yurishlaring,
Jonim kelib, yonimda tur bir umr sen,
Yaro qalbim bir bora ko`r sevgilim sen.

Qalam bilan astagina qog`oz qoralab,
Muhabbat bog`ini kezay oralab.
Ruxsat ber, ko`rayin qalbing, mo`ralab,
Jonim kelib, yonimda tur bir umr sen,
G`amgin qalbim bir bora ko`r sevgilim sen.

Olam aro yagonadir oydek yuzlaring,
Dunyoda hech topilmaydi charos ko`zlaring.
Eshitmasman hech qayerda shirin so`zlaring,
Jonim kelib, yonimda tur bir umr sen,
Oshiq qalbim bir bora ko`r sevgilim sen.

She`rlar bitib, rohatlanar tanda jonim,
Seni deya tomirlarda oqar qonim.
Bir pas tingla, ey hurliqo ohu-vohim,
Jonim kelib, yonimda tur bir umr sen,
Xasta qalbim bir bora ko`r sevgilim sen.

Bola misol beg`uborsan, doimo sho`xsan,
Yuragimda o`t oldirgan sen o`shal cho`g`san.
Bu dilimda bir umrga ketmas bir dog`san,
Jonim kelib yonimda tur bir umr sen,
Muhammadning yori bo`lg`in sevgilim sen.



SO'NGGI QO'NG'IROQ

Chalinadi so'nggi qo'ng'iroq,
Bitiruvchi kayfiyati chog'.
Yuzlarida tabassum, biroq,
Vujudida noma'lum titroq.

Hech ketgisi kelmaydi, sira,
Ko'zlarida yoshlari ila.
Maktab bilan xayrlasharlar
O'quvchilik bo'lar xotira.

Ortda qoldi shodon bolalik,
Yoshlik o'tdi sho'x shaloladek.
Shodligidan xursanddir hamma,
Yurtim olg'a chorlar onadek.

AZIZA

Dunyoda sen yagona, yuzingda baxt porlagan,
Xushbo'y atring ifori meni senga chorlagan.
Seni bir bor ko'rdim-u bo'ldim oshiq pinhona,
O'shal kundan beri ko'nglim bo'ldi, g'amxona.

Ruxsat ber jonim sevay umrim poyonigacha,
Faqat seni deb yashay so'nggi joy, manzilgacha.
Qizlar ichida gulsan suyukligim Aziza
Qalbimda tanho sensan kulib turgin hamisha.



QASHQADARYO

Ko`chalarni kezib sekin,
Axtaraman senga ta`rif.
Yodga tushdi menga keyin,
Yordam berdi ko`hna tarix.

Temurbekning vatanisan,
Shoirlarning jon-tanisan.
O`zbekiston gavharisan,
Porlayotgan yulduzisan.

Chiroqchida go`sht mo`l-ko`l,
Shahrisabz ravon yo`l.
Qamashida bor bir ko`l,
Kel birodar tezroq bo`l.

SHARROS YOMG'IR

O'sha kuni rosa ham sharros yomg'ir quyardi,
Yuzlarimni tomchilar mayin-mayin silardi.
Yo'l chetidagi bog'da uni ilk bor ko'rgandim,
Ko'rib uni o'shanda oshiq-majnun bo'lgandim.

Uning ko'zlarida hech ma'yuslik sezilmasdi,
Ma'yuslik bo'lsa ham balki hech sezdirmasdi.
Doimo yuzlarida baxt ufurib turardi,
Meni har bir so'zimdanda kulib shodon yurardi.

Yomg'ir yoqqan kunlarda doim birga yurardik,
Yomg'irni qo'yib bizlar, ahdu-paymon qilardik.
Bir-birimizga boqib tinmay va'da berardik,
Xiyonat qilmaymiz deb, hatto qasam ichardik.

Bir kuni kelib sekin sizni sevmayman dedi,
Shu so'zni aytdi-yu shart ortga burilib ketdi.
Ne deyishim, ne qilarim bilmadim ey do'stlarim,
Ishonib yurgan edim, sindirdi-ku yuragim.

Nahot endi ul yorga yo`qdir mening keragim,
Endi faqat bittadir mening unga tilagim.
Jonim, baxtli bo`lgin sen yoring bilan bir umr,
Meniki emassan endi ey bevafo malagim.

O`sha kun ham tinmay sharros yomg`ir quyardi,
Faqat bu payt tomchilar yurak-bag`rim tilardi.
Qalbinga ozor yetdi, og`rib turibdi hamon,
Ne qilay, sevarman, xayolimdan ketmas bir on.

Jasorat topib qaydan bordim uning uyiga,
Borayapman deb o`ylab sobiq sevgim to`yiga.
Lekin to`y emas aza bo`layotgandi, ey voh,
Nega yosh jonini olding, ne edi unda gunoh?

Keyin bilsam chalinibdi yorim bevafo dardga,
Bu haqida aytmabdi hatto bir bora menga.
Ey hayotim, dilbarim meni sen tashlab ketding,
Baxtli edi kunlarim ko`zlarim yoshlab ketding.

Sensiz endi qanday men yashayman, ey dilrabo,
Sen ketgan kundan boshlab bo'ldi-ku qalbm yaro.
Endi yonarman faqat sog'inchli o'tlar aro,
Yuragimda yashaysan bir umr ko'zi qaro.

Bugun ham yuzim silar o'sha mayin tomchilar,
Topildi endi menga munosib dardkashchilar.
Ey yomgir tomchilari yuzlarimni yuvingiz,
O'sha yorning ismini dildan olib ketingiz.

Kechirgin ey sevgilim yoningga borolmadim,
Ota-onamni, oilamni men tashlab ketolmadim.
O'shanda men dardingni o'zimga ololmadim,
Tirikligingda aslo qadringga yetolmadim.

Bugun ham yomg'ir yog'ar qabring ustiga mana,
Tepangda o'tiribman, jonim qaragin mana.
Bilaman ko'z yoshlaring yomg'ir bo'lib yog'yapti,
Mening qalbm dog'larin mayin tomchi yuvyapti.

BAHOR

Har kim bahorni har xil ta`riflaydi o`zicha,
Ko`rmoqni istar hamma dunyoni o`z ko`zicha.
Men ham bahor haqida aytay sizga o`z fikrim,
Men o`z o`yim qog`ozga to`rt misra she`rda bitdim.

Bahor kelib tog`larda gullolalar ochildi,
Qorlar, muzlar eridi quyosh nuri sochildi.
Qaldirg`ochlar ham yana kelar qanotin qoqib,
Peshayvonga in qurar, uchib har yonga boqib.

Sekin-sekin almashar kechagi qalin ust-bosh,
Qani yengil kiyimga o`ta qolgin zamondosh.
Oh, naqadar xushbo`ydir bu boychechakning isi,
Bahor yangi hayotning boqiy teran ildizi.



DO`ST

Yetgin do`st qadriga,
Malham bo`lgin dardiga.
Dilini og`ritma hech,
Xizmatin qil erta-kech.
Gar do`stsiz bo`lsa boshing,
Tuzsiz bo`lganday oshing.
Qalin do`sting bo`lsa gar,
Qiymati oltin u zar.
Do`stga xiyonat qilma,
Uni begona bilma.
Mingta do`sting bo`lsa kam,
Do`stni asragil har dam.



QOR JANGGI

Osmondan tushar qorlar,
Bizni dalaga chorlar.
Boshlanadi qorbo`ron,
Qal`a bizlarga dovon.
Anvar chiqdi qasrga,
Ravshan tushdi asirga.
Qizib ketdi qor janggi,
Egimda kiyim yangi.
Jarimalar to`landi,
Usti boshim bulandi.
Otdim men Sanjarbekga,
Mo`ljal boshqaga tekkan.
O`sha bola menga ham,
Otdi qaytarib birdan.
Bir kunim shunday o`tdi,
She`rim ham tugab bitdi.
Bugun o`tdi yoshlik ham,
Erkalik-beboshlik ham.
Beg`uborlik, go`zallik,
O`zgacha edi u dam.

FASLLAR

Fasllarning kelinchagi gulbahor,
Sumalaklar pishib turar har nahor.
Har yonda yam-yashil o'tlar o'sar,
Ko'ngillar ham shodlikka to'lar.

Quyosh qizdiradi yoz fasli,
Pishiqchilik eng avji palla.
Ta'tilning ham uzuni asli,
Shu faslda aytsam baralla.

Fasllar ichra ko'z-ko'z,
Qilar o'zin oltin kuz.
Tog' qadar o'sib xirmon,
Boy bo'lar O'zbekiston.

O'lkamizda kelsa qish,
Qishda biroz ko'p tashvish.
Havoning yo'q g'ubori,
Ayniqsa mazza qori.


ALAM

Sevdim sevilmadim, afsus, nadomat,
Muhabbat deganda yuz burdi omad.
O'sha kun yurakda uyg'ondi nafrat,
Sevgilim sevgimni o'yin qilganda.

Ko'z yumdim ko'pgina qilmishlariga,
Hattoki ustimdan kulishlariga.
Ba'zi vaqtlar telba deb yurishlariga,
Sevgilim sevgimni o'yin qilganda.

Balki yoqmasdirman unga men zinhor,
Lek uning vasliga yurak bo'ldi zor.
Ey tangrim, qalbimga bermagil ozor,
Sevgilim sevgimni o'yin qilganda.

"Ozor berma majruh dilga bo'ldi bas,
Menga bunday sevgi zinhor kerakmas".
Degim keladi-yu lek aytolmayman,
Sevgilim sevgimni o'yin qilganda.



MEN SUYANGAN TOG`DIR OTAM

Bizlarni deb mehnat qilgan,
Orzu-umidimiz bilgan.
Kam bo`lmasin deya yelgan,
Men suyangan tog`dir otam.

Padari buzrukvor ulug` ,
Qadamlari erur qutlug` .
Unga qilgum doim qulluq,
Men suyangan tog`dir otam.

Ulug` larning izin bosib,
Voris erurmiz munosib.
Yaxshi kunlar bo`lgay nasib,
Men suyangan tog`dir otam.

Muhammadda bor bir tilak,
Kuchga to`lgach bu mo`rt bilak.
Bo`lgaydirman doim tirkak,
Men suyangan tog`dir otam.

BUVIJON

Dunyoda bir donasiz, otajonim onasi,
Uyimizning parisi, qalbimiz yagonasi.
Buvijonim doimo chaqnab turar ko`zingiz,
Yoshingiz yetmishdadir, mehribonsiz o`zingiz.

Qancha mehnatlar bilan, ulg`aytirib otamni,
Qiyinchiliklar ila, shunday yaxshi odamni.
Xursand qilib bizlarni kelsangiz uyimizga,
Mehr chirog`i yonar tadbir-u to`yimizda.

Duoningiz bir olam, nasihat qilib har dam,
Yuringiz bo`lib bardam, ulg`aytirib bizni ham.
Nabiralaringiz ham, dastyordir sizga ildam,
Baxtimizga sog`bo`ling, doimo bo`ling bardam.

O'ZBEKISTON

Taqdirim, jon O'zbekiston,
Asrlar tilida o'qilgan doston.
Kelajagi buyuk barkamol avlod,
O'tmishing qadrlab mudom aylar yod.

Kelarsan nurafshon yo'llarni bosib,
Jang-u jadallardan o'tding munosib.
Pahlavonlar yurti, go'zal Vatanim,
Fido bo'lsin senga jonim ham tanim.

Yurtim mustaqildir osoyish jonim,
Ko'rkam hur diyorsan, O'zbekistonim.



IZHOR

Ul paridan boshqasi dilga begona,
Ishq mayidan totuvdim, yurak g`amxona.
Ko`zlaringa ko`rinar dunyo tim-qora,
Endi she`rlar bitaman men oshiqona.

Ko`zlari ohudek, qoshlari kamon,
Bu yorning dastidan ahvolim yomon.
Uni o`ylaydirman men hali hamon,
Hali qadrimga yetar u hali zamon.

Oh! Ko`zlarim toldi, to`kaverib yosh,
Bu dardga qandayin berayin bardosh.
Meni ado qilgan o`shal qalam qosh,
O`ylayverib bir kuni yorilar bu bosh.



TAQDIR

Kunlar o'tdi, vaqt o'tdi, quvonch o'tdi, baxt o'tdi,
Yor hijroni qo'yvorib, ilm qo'limdan tutdi.
Kecha yurgan ekanman bevafoqa ishonib,
Qaydagi bir lafzsizning ishqida kuyib-yonib.

U yolg'onchi qachonlar meni unutgan ekan,
Yuragidan ismimni butkul quritgan ekan.
Eh do'stlarim tinglanglar mening mungli ohimni,
Sizga so'zlab beraman o'shal dardli chog'imni.

Sakkizinchi sinfda bir qizni chindan sevdim,
Hushimda-yu tushimda faqat o'shani derdim.
Sevgimning alangasi kuchayardi har onda,
Barchadan qizg'onardim, shubha o'lgur yomonda.

Birov yonidan o'tsa shu bilan yurgan dedim,
Ismini aytsa hatto, uni ham sevgan dedim.
Bu rashkimdan o'zim ham, ko'p qolganman uyaliq,
Ba'zida qo'yardim ham sevgilimni ranjitib.

Bitiruvchi sinfmiz, ketishga ham oz qolgan,
Yangi hayot yo`liga yetishga ham oz qolgan.
Ilm izlab ketdim men, Toshkent degan poytaxtga,
O`tirmoqchi bo`ldim men, bilim degan boy taxtga.

Qulog`imga chalindi har xil bo`lmag`ur mish-mish,
Bir vaqtlar men sevgan, boshqani sevar emish.
Ketganimga to`lmasdan atigi uch-to`rt oy ham,
Ul bevafo beribdi darrov sevgimga barham.

Kunlar o`tdi, vaqt o`tdi, quvonch o`tdi, baxt o`tdi,
Yor hijroni qo`yvorib, ilm qo`limdan tutdi.
Kecha yurgan ekanman bevafoqa ishonib,
Qaydagi bir lafzsizning ishqida kuyib-yonib.



KENJATOYNING ARZNOMASI

(Hazil she`r)

Buyruq berish oson, uni bajarishdan ko`ra,
Kichiklarning ahvolin nega so`rashmas sira.
Biz kattamiz sen kichik, deb bosh qotirishar,
Ba'zan qo`pol gapirib, dilni qilishar xira.

Eh akalar, opalar qo`ying meni holimga,
Buyruq berishlaringiz tegib ketdi jonimga.
O`zingiz qo`yib ko`ring bir bor mening o`rnimga,
Shunda bilar edingiz qiyinligini menga.

Dardim she`r qilib yozdim bugun qoralab qog`oz,
Gapiraman endi men qaddimni tutib tik, g`oz.
Mustaqil bo`lishimga qoldi juda ham vaqt oz,
Kichiklik "mas'uliyati"dan o`zimni etib xalos.

OTAMNING O'GITLARI

Ko`chadan kelsam gar kech,
Urishmaslar meni hech.
Tushuntiralar sekin,
Hayot o`yinmasligin.

Deydilar menga goho,
Bolam o`ylab bos qadam.
Yigit kishining boshi,
Sinovlardadir har dam.

Otamdan zo`r yashadim,
Sen mendan ham zo`r yasha.
Bilim deb men yashnadim,
Sen ham bo`l unga tashna.

O`g`lim berilmagin sen,
Yolg`on o`y-u havasga.
Afsuslanarsan keyin,
Tushib qolib qafasga.

Hech qachon xasis bo'lma,
Yuraging ochiq bo'lsin.
Pulning ketidan quvma.
Doim pul seni quvsin.

Otamning o'gitlari,
Yodimda turar har dam.
Pul, boylik kelar bari,
Yonimda tursin otam!



SHE`RIYAT

She`riyat, aslida qalbimga nursan,
Xasta yuragimga malham huzursan.
Yolg`izlik qa`ridan olib chiqquvchi
Qalbimda uyg`ongan mehri-shuursan.

She`riyat mayliga ilhom ber menga,
Bog`lanib qoldim-ku axir men senga.
She`r yozib hayotdan olaman bahra,
Sadoqat bo`lib kir mening qalbimga.

She`riyat, sen o`zing suyanchig`imsan,
Uyqusiz tunlarda yupanchig`imsan.
Sen-la talpinarman men yuksaklarga.
Bebaho satrlar bitgan tig`imsan.

ONAMGA ATAB

Go`zallarning ostonasiga,
Tunlar turdim she`rlarim quchib.
Bugun onam dilxonasiga,
Ketibdiku xayolim uchib.

Ul zot bo`ldi kul yona-yona,
Atrofimda bo`lib parvona.
Sizga atab she`r yozdim mana,
Onajonim tinglang, ey ona.

She`rim ona sizga maktubdir,
She`rim ona ishqqa tobutdir.
She`rim ona biroz sovuqdir.
She`rim ona menga sodiqdir.

Ona sizga atay she`rimni,
Manglay emas yurak terimni.
Atay sizga jannat yerimni,
Onajonim tinglang, ey ona.

Go`zallarning ostonasiga,
Tunlar turdim she`rlarim quchib.
Bugun onam g`amxonasiga,
She`rim yozdim osmonda uchib.

***OZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI
PREZIDENTI I.A.KARIMOVga bag'ishlanadi***

Xalqning o'g'loni, qahramoni, qalqoni,
Qalblarni zir titratib, tashlab ketdingiz.
O'zbekning ishongani joni - jahoni,
Baxtli yuraklarni g'ashlab ketdingiz.

Bugun hatto falak ham ko'z yosh to'kadi,
Sizning xotirangiz asrlarga teng.
Ko'z yoshlardan butun dunyo cho'kadi,
Tangri jannat eshigin ochib qo'ygin keng.

Qo'limga qalamim olib men shu on,
To'xtamay qog'ozni qoralayabman.
Butun xalqim bilan bugun nogahon,
O'tmishning yo'llarin oralayabman.

O'tmishning varaqlarin birma-bir ochsak,
Ishlaringiz adog'in topolmasmiz hech.
Ey xalqim, qo'limiz duoga ochsak,
Islom bobom qabrida yotsinlar deb tinch.

USTOZIM RAHMAT!

Ustoz siz go'yoki, farishta misol,
Donoligingiz donishmandlikka timsol.
Yuzlaringiz nurdek so'zlaringiz bol,
Sizga boshim egaman mangu to'abad,
O'qitarsiz tinmayin, ustozim rahmat!

Hayot ko'chasida adashsam goho,
Deysiz doim bo'lg'in deb ilmning shohi.
Ko'p ekan yo'limda do'st-dushman choh-i,
Siz sabab uyg'ondi qalbda muhabbat,
O'rgatarsiz tinmayin ustozim rahmat!

Ustoz ayting o'zimd'an qachon qonaman,
Beboshlikdan qachon o'zim tiyaman.
Shularni bilmayin yomon yonaman,
Bor aybim o'zimg'a aytib hamma vaqt,
Uqtirarsiz tinmayin ustozim rahmat!

Sizsiz go`yoki men to`lqinsiz dengiz,
Sizsiz falakda ham o`rni yo`q yulduz.
Men bir niholdirman siz esa ildiz,
Men san`atkor bo`lsam siz bo`ling san`at,
O`qitarsiz tinmayin ustozim rahmat!

Do`stlar tafakkurni chirog`in yoqing,
Ustoz o`gitlarin domida oqing.
Faqat shunda bo`lar nomingiz boqiy,
Tashakkurlar aytar sizga Muxammad,
Rahmat sizga ustozim, ustozim rahmat!



«SHAYTON» QIZCHASAN

Jiyanim Sitoraga

Kulmaganni kuldirib doim xursand qilasan,
Barcha ayyorliklarning sir-asrorin bilasan.
Qitiqlasa qiqirlab sho`x-u shodon kulasan,
Eh Sitora, bunchalar ayyor, "shayton" qizsan.

Ko`zi qisiq, burni puchuq, yuzi oydek qizaloq,
Ko`zlaring g`am ko`rmasin olamga sen kulib boq.
Qirda o`sgan guldeksan go`yo lolaqizg`aldoq,
Eh Sitora, bunchalar ayyor, "shayton" qizsan.

Singiljonim, senda men kelajakni ko`raman,
Tezroq o`sib ulg`aygin, tog`dek suyanch bo`laman.
Sen jilmaysang bir olam quvonchlarga to`laman,
Eh Sitora, bunchalar ayyor, "shayton" qizsan.

BIR ONLIK SEVGI

Mashinamda ketayotib,
Bir go'zalni uchratdim.
Birdan tormozni bosib,
Go'yo otdek kishnatdim.
U parini uchratib,
Xayol uchdi qay go'rga.
Aqlga qon sachratib,
Ilindim sevgi to'riga.
Afsus tilim kuygandi,
Muhabbatim xo'p-ko'p.
Dedim o'zimga-o'zim,
Yo'ldan qolma Muxammad.
Hech uzilmasdi ko'zim,
Yo'l qo'ymasdi muhabbat.
Shu vaqt "akajon" deya,
Jiyanim keldi kulib.
Tushim ekan xayriyat,
O'zimga keldim turib.

QISQA SATRLAR

Hayot do'stlar, juda go'zal,
Ba'zan quruq, ba'zan qonli.
Shunday bo'lgan azal-azal,
Yasha unda shavkatli shonli.

Halol bilan birga yurgin,
Haromlardan yuzing burgin.
Qo'ldan kelgancha Muxammad,
Xalqning xizmatida turgin.



O'ZBEKISTON MAG'RURSAN

Men shunchaki bir g'arib,
Sening qo'yingda o'sgan.
Senga ta'rif axtarib,
Xayollarimni to'sgan.
Ayt, seni qanday atay,
Otammi yo onammi?
Qandayin nur taratay,
Yoritay koshonamni.
Shoirilar charchamagan,
Hofiz kuylab tolmagan.
Yo'lingda uchramagan,
Sinovlar ham qolmagan.
O'zbekiston mag'rursan,
Tiksan or-nomusing but.
Mangu shunday qolarsan,
O'zing hozirgiday tut.
Senga atab misralar,
Bitadi Muxammad ham.
Aytadi tashakkurlar,
Cheksiz, tengsiz rahmat ham.

QASHQADARYO

Qashqadaryo, eling seni mehnatsevar,
Yigitlaring oilam deya tinmay yelar.
Qizlaring bor qo'llari gul, mohir, chevar,
Tuprog'ing bor har bir qismi oltinu zar.
Imkon bergin bo'layin senga zo'r madad,
Charchamaydi seni deya so'zlab Muxammad.

Olislardan kelishar ko'rmoqlik uchun,
Savlatini, jon Qarshim, bilmoqlik uchun.
Muqaddas yo'llaringdan yurmoqlik uchun,
Yorug'dir ko'chalar yashnar tunu kun.
Niyatim bo'lmoqlik senga mos farzand,
Bermasa bu yo'lda taqdir menga pand.



DILSORAM

Tovlanadi, bu sochlaring o'ram-o'ram,
Ko'zlaringga bo'lib qoldim bugun qaram.
Falaklarga yetmoqdadir tortgan na'ram,
Tingla ohim, hurliqoyim jon Dilsoram.

Farishtasan, mehri daryo onamdeksan,
Izlab-izlab topganim bir donamdeksan.
Eshit, bugun ishq ila chaldim diltorim,
Yurak urar faqat sen-la, jonim, Dilsoram.

Yuzlaring zilol suvdek tiniq bunchalar,
Labingdan nusxa olgan qizil g'unchalar.
Senga atab yuragimdan ochay gulzorim,
Chunki faqat seni dedim, sevdim, Dilsoram.



HAYOT DARSİ

Kim bilandir dardlashging kelsa,
Qilarkansan do'stga qo'ng'iroq.
Boshing borib devorga tegsa,
Ey, odamzod atrofingga boq.

Bordir seni qo'llaguvchilar,
Maslahatin yo'llaguvchilar.
Unutma, uchraydi ko'p hatto,
Yo'lingdan ham chalg'itguvchilar.

Lek musofir bo'lmasdan oson,
Bo'lolmassan hech ham musulmon.
O'z yurtida o'yna-kul shodon,
G'avg'o qilma bo'lmagin nodon.

Otang molin pesh qilmagin hech,
Onang ko'zin yosh qilmagin hech.
Qadrin bilgin duosin olgin,
Erta bir kun bo'lmasidan kech.

So'zin aytdi senga Muxammad,
Aytadirsan ertaga rahmat,
Sezilmaydi ota-onang bo'lsa,
Yo'lda uchraydigan ming zahmat.

ONAJON

Ona sizni qiynab qo'ygan onlarim ko'pdir,
Yuragingiz qiynoqlarin sonlari ko'pdir.
Meni bir bor o'ylamagan soniyangiz yo'qdir,
Nima qildim onam deya aytgin, ey hayot,
Qora sochlar oqardi-ya meni deb hayhot.

Sevgidan, do'stlikdan ham yomon qoqildim,
Foydalanib-foydalanib oxir otildim.
Bir chekkada keraksizdek har yon sochildim,
Umidlarim bo'lganida batamom barbod,
Yuksaltirib uchirdingiz siz bo'lib qanot.

Yolg'on dunyo yolg'oniga aldanib goho,
Sarson dunyo sarobini qilibman orzu.
Unutibman borligini farzandlik farzi,
Qilmishimga yarasha ko'p oldim jazo,
Kaftingiz ochib o'g'lingizni qiling duo.

To bor ekan Muxammadning ijodxonasi,
To'xtamaydi Tangriga she'riy nolasi.
So'rar faqat sog'et deya farzand onasin,
Ayrilmasin hech bir go'dak o'z onasidan,
Hayotida quyosh bo'lgan yagonasidan.

Hayot, ona, o'ylagandan qiyin ekan,
Erka bo'lsang pand yeyishing tayin ekan.
Duoingiz tufayli yiqilgan yerim,
Par to'shakdek muloyim mayin ekan.
Yana bugun ijodim boshladim ona,
Tun zulmatdan nurga qadam tashladim ona.



SEVGIM QALBIMGA KO'MDIM

Sen tufayli bevafo,
Muhabbatga ko`z yumdim.
Do`stlar ne hol, ajabo,
Sevgim qabrga ko`mdim.

Nazarga ilmay ketding,
Yor, xursandmisan ayt.
Qancha boylikka yetding,
O`sha mendan kechgan payt.

Tangri berar nasibam,
Men sensiz ham yashayman.
Lek ko`p tirnalar yaram,
Ayriliqda qaqshayman.

Qomating parisifat,
Zaboning asalu qand.
Isbotlading borligin,
Bu dunyoda xiyonat.

Sensizlikka dil ko`ndi,
Yurakdagi cho`g so`ndi.

O`z qo`lim bilan bugun,
Sevgim qalbimga ko`mdim.

Xayoldagi hayotim,
Yo`limdagi baxt otim.
Bugun sindirib ketding,
Endi uchmas qanotim.

Aytgin, toshyurakmisan,
Bir bor rahm qilmading.
Nahot shuncha sevgim kam,
Nazaringga ilmading.

Bir gap aytaman senga,
Faqat xafa bo`lmagin.
Arzimaysan sen menga,
Endi yo`ldan qolmagin.

Sen tufayli bevafo,
Muhabbatga ko`z yumdim.
Do`stlar ne hol ajabo.
Sevgim qabrga ko`mdim.

ANORA

Yurak bugun g'amxona,
Hijroningdan nachora.
Ko'p kuttirma kela qol,
Suyukligim Anora.

Ko'z oldimda gul jisming,
Tilim takrorlar isming.
Sog'inyapman tobora,
Qaylardasan Anora.

Senga ta'rif aylayin,
Bir boshidan so'ylayin.
Kuy bastalab kuylayin,
Suyukligim Anora.

Yurak bo'ldi g'amxona,
Dil tinmas yona-yona.
Sevgim etay oshkora,
Parizodim Anora.

So'zim yolg'on emas chin,
Chindir qalbdagi sevgim.
Sen ham kelsayding zora,
Sog'indimku Anora.

Muxammad Maxmud yozar,
Tinmay she'rlarin tuzar.
Hatto aqldan ozar,
Darveshingman Anora.

Muhabbatga chap berib,
O'tolmasman berkinib.
Saralar ichra sara,
Taqdirimsan Anora.

Mendan dunyoni so'ra,
Lek tark etma Anora.



DILNOMA

(Bevafo nomidan so'zladim)

Bevafo dema meni,
Tashlab ketmadim seni.
Sen o'zing aybdordirsan,
Endi topgin tengingni.

Xohlaganim bermading,
Chaqirganda kelmading.
Oshiqlarimga o'xshab,
Bosgan izim termading.

Shoirman deb yuraver,
So'zdan qasr quraver.
O'sha she'rlaring bilan,
Davru davron suraver.

Malikadirman tengsiz,
Orzularim xo'b cheksiz.
Siqilmang, g'am chekmang,
Baxtliman hozir sizsiz.

Men sevmagan ekanman,
Faqat yaxshi ko'rganman.
Sizning telbaligingiz,
O'shandayoq bilganman.

Toqatingiz ham to'ldi,
Sirdosh bo'ling sabrga.
Endi "Charosingiz" o'ldi,
Ko'ming uni qabrga.

Ko'ning shunday jabrga,
Ko'ning ishqning dardiga.



YASHAYMAN

Orzuning etagin tutib yashayman,
Bor dardim ichimga yutib yashayman.
So`ramang chorasiz qoldingmi deya,
Shuchaki baxtimni kutib yashayman.

Umr yo`lim go`yo g'amli kundalik,
Yoshlikdan qolgandir dardli esdalik.
Hech kim kutmagaydir baxtni menchalik,
Shunchaki baxtimni kutib yashayman,
Orzuning etagin tutib yashayman.

YETMAYDI

Gulim yaprog`ingga qo`lim yetmaydi,
Diydor men oshiqqa yo`lin tutmaydi.
Hijroning qalbimni tirnasa netay,
Vaqt ham atayin bir on kutmaydi.

KUZ

Qalbimdagi dardlar kabi,
Sarg'aytirgan barglarni kuz.
Yurakdagi nolalarim,
Kuyga solgan torlari kuz.

Hayot o'zi murakkabdir,
Har kim ekanin o'rar.
Unda yashash katta gapdir.
Tashrifing ham kuch berar.

Bobodehqon mehnat qilib,
Berganini e'zoz bilib.
Qolganiga sabr qilar,
Yaratganga shukr qilib.

Do'stlar tinglang Muxammadni,
Aziz biling har ne'matni.
Kuz ham Tangrim mo'jizasi,
Ayting unga ko'p rahmatni.

TINGLA BIR BOR

Kuzda ochilgan gulim,
Seni sog`inar dilim.
Sevgim aytolmas tilim,
Ko`namanda nachora,
Hijroningga Dilsora.

Bilaman sen yulduzsan,
Tun aro yor kunduzsan.
To`lqin bo`lsam dengizsan,
Ishq chalmoqda nog`ora,
Tingla bir bor Dilsora.

Seni sevdim telbadek,
G`aribona kulbadek.
Nay taratgan noladek,
Muhabbatda ovvora,
Bo`lmoqdaman Dilsora.

Darvesh bo`lib kezaman,
Aqlimdan ham ozaman.
So`zdan marjon tuzaman,
She`rda etay oshkora,
Sevishimni Dilsora.

Oshiq so`zidan qochma,
Yuragiga tig` sanchma.
Armondan kafan bichma,
Rahm qilgin bir bora,
Dilsora, ey Dilsora!



YOMG'IR NAFASI

Yordam ber ijodga yomg'ir nafasi,
U sen-la uyg'ondi bugun qaytadan.
Yurakka tor kelar dardlar qafasi,
Bu yurak ingraydi g'amli baytlardan.

Tomchilar tovushi yodimga solar,
Onamning kuylagan mungli allasin.
Musaffo havoing g'uborim olar,
Sog'indim bahorning hushbo'y pallasin.

Yomg'irning ostida uchratgan edim,
Armonga aylangan ilk muhabbatim.
Soyabon tutib men kuzatgan edim,
Afsus poyon topdi sevgidan baxtim.

Endi muhabbatim atayman yolg'iz,
Ota-onam va Vatan, xalqning yo'liga.
Lekin qilmagayman umrimga afsus,
Cho'kmayman aslo men g'amning ko'liga.

Hayot cho'chimayman sinovlaringdan,
She'riyat sen menga bo'lgaysan hamroh.
Sen ham qo'rqmagin bu savdolaridan,
Baxtimiz bergaydir yaratgan Alloh.

O`ZBEKMAN

Men xalqimning erkasiman,
Men yurtimning ertasiman.
Bobolarim elchisiman,
Hur vatanning egasiman.

Burgutdagi ko`zdekman,
Shahd-la aytgan so`zdekman.
O`zimga xon, bek bo`lgan,
Qalbi toza o`zbekman.

SOG`INDIM ONA

Sog`inch azobiga topilmas malham,
Tanam titrar negadir yurak g`amxona.
O`zimni qo`yarga joy topolmasam,
Takror-takror bir so`z chiqar yagona,
Sog`indim, sog`indim, sog`indim ona.

Mehringiz sog`inib bugun tobora,
Dardlarim yurakka tugun, nachora.
Yonimda erta kech bo`lib, parvona,
Faqat bir so`z chiqar takror pinhona,
So`gindim, sog`indim, sogindim, ona.

YIGIT YO'LI

Yigit kishining boshi sinov ichra sinalar,
Toblar sabr bardoshin imtihonli zinalar.
Ming bir balo kelsa ham egilmagin, ey yigit,
Hisobingga yoz savob, yozma rasvo zinolar.

Sen erkaksan tan berma yo'qchilkka, kulfatga,
Vafodor chin do'st orttir, oshno bo'lma ulfatga.
Boshing ming martalab darz ketsa ham ofatdan,
Yondosh bo'lgin yaxshiga, yo'ldosh bo'l sen toqatga.

Otang borligi himmat, onang esa g'animat,
Yaqinlatma yoniga qariganda musibat.
Otang o'gitin olgin, onang esa duosin,
Oyoqlari ostida do'stim hattoki jannat.

Yorni izlab topgin do'st, ochiqko'ngil shirinso'z,
Ishdan kelsang "begim" deb kutib olsa yarashar.
Lek peshonang sho'r bo'lsa birodarim, umid uz,
Unutma, sabrliga, toqatliga Tangri o'zi qarashar.

TO'RTLIKLAR

To'qqizinchi may bugun, bobomlarni qutlaymiz,
Poylariga gulchambar qo'yib biz ulug'laymiz.
Bobom bizga urushda ko'rsatgan zo'r jasorat,
Chap oyog'idagi o'q bo'lib qolgan asorat.

Siz sabab musaffo yurtim osmoni,
Kor qilmas g'animning hiyla-yolg'oni.
Xalqini qo'riqlar qoni-qalqoni,
Sog' bo'ling doimo vatan posboni.

Sevgim bu mangulikdir,
Mangulik ham sevgimdir.
O'zga jonon yor bo'lmas,
Mening yorim tengimdir.

Sevgidan so'ylasa so'zlarim,
Sabrga sirdoshdir sirlarim.
Sotqinim so'rama sog'lig'im,
Sezyapman suvsizdir soylarim.

MUHABBAT

Shoir zoti asir bo'lar muhabbatga,
She'riyati qasr bo'lar muhabbatga.
Suyganini kamchiligin ko'rmaydi u,
Ko'zlari ko'r, basir bo'lar muhabbatga.

Muhabbatga yuragidan borin atar,
Kuy taratgan sehrli dil torin atar.
Go'zal bo'lar, nafis bo'lar, toza bo'lar,
Qalbdan qurgan suyuqli gulzori qadar.

Qo'llaringdan og'uni ham ichgaydirman,
Seni deya aqlu hushdan kechgaydirman.
Ayt ma'budam qulog'imga shivirlab,
Qachon seni zor vaslingga yetgaydirman.

Borgaydirman bir kun albat, yor yoniga,
Ayriliq ham javob berar ishq oldida.
Tashna bo'lmoqda Muxammad o'z qoniga,
Hijronlaring yurak-bag'rim ko'p tildida.

Shoir zoti asir bo'lar muhabbatga,
She'riyati qasr bo'lar muhabbatga.
Suyganini kamchiligin ko'rmaydi u,
Ko'zlari ko'r, basir bo'lar muhabbatga.

TELEFON...

Yurak yolg`izlikda siqilar yomon,
Xayollarim uchar tinmay har tomon.
Bilaman qilmaysan ortiq qo`ng`iroq,
Endi jiringlamas aslo telefon.

Mendan kechganliging nahotki tayin,
Imkon ber, qaytadan, baxtli etayin.
Sensizlik qiynaydi vaqt o`tgan sayin,
Yonimga kelishing endi ko`p gumon.
Endi jiringlamas aslo telefon.

Zangladi simyog`och simlari bugun,
Qalbingda armonlar xo`p bo`lar tugun.
Muhabbat mangudir sen menga ishon,
Afsus jiringlamas endi telefon.

Bu tun yor, bo`ldiku ishq qasri vayron,
Ayriliq qushlari charx urar giryon.
Hijroning shoirni qo`ymas beomon,
Afsus jiringlamas endi telefon.

Sahroi kabir ham menga sovuqdir,
She`rlarim, kel o`zing meni ovuntir.
Bilmadim negadir dilda xavotir,
Go`yo men tomonga kelmoqda to`fon,
Balki jiringlamas endi telefon.

Yurak yolg`izlikdan siqilar yomon,
Yulduzsiz qarodir tunlari osmon.
Sarg`aydi Muxammad rangi ham somon,
Endi jiringlamas aslo telefon.

O'YLA

Nimadandir siqilganingda,
Nogoh yo`lda yiqilganingda.
Yo do`sting deb qoqilganingda,
Hech ish qilma otangni o`yla,
Va munisa onangni o`yla.

Uloqtirgin dardni buyumdek,
Kiyib olma juldur kiyimdek.
O`rab olsa ofat quyundek,
Parvo qilma otangni o`yla,
Va munisa onangni o`yla.

Nomard bilan do`stim, olishma,
Mardga yon bo`l yoqa tortishma.
Bevafoga mehring alishma,
Ulg`aytirgan otangni o`yla,
Va munisa onangni o`yla.

Seni deya chekdilar jabr,
Azoblarga qildilar sabr.
Qahr emas sen bergin mehr,
Madadkoring otangni o`yla,
Va munisa onangni o`yla.

Otang sherdir sen bo`lgin arslon,
Munosib bo`l otangga o`g`lon.
Muxammad bo`l, tulkimas, qoplon,
Halol boqqan otangni o`yla.
Oq sut bergan onangni o`yla.



NASIHAT EMASDIR AYTGAN SO`ZLARIM

Shayton bilan ajal birgalashmoqda,
Yarimta qalbimni tilkalashmoqda.
Aqlim va yuragim kelishmay, ona,
Baxtinga yetkazar yo`l talashmoqda.

Erkaning ertasi yo`qmikan do`stlar,
Ertaning erkasi bugun qiynalar.
Erkakning boshiga g`am kelsa ota,
Ota-ona duosi madadkor bo`lar.

Siqilmang musofir o`g`lingiz deya,
U bir kun o`z yo`lin topar, albatta.
Sahroda adashib qolsa ham tuya,
Biror-bir karvonga qo`shilar shartta.

Nasihat emasdir aytgan so`zlarim,
Yozaman ko`rganin ikki ko`zlarim.
Zo`rsan deb avrashib, chohga itarib,
Dushmanim tovonin yalar do`stlarim.

Sevganim pul deya, e`tibor deya,
Yolg`on o`yinlarin afzal ko`rdi-ya.
Durdek muhabbatdan voz kechib bugun,
Shaytonning aldamchi yo`lin yurdiya.

Kutmovdim hayotning zarbalarini,
Goh oppoq, goh qora sahnalarini.
Taqdir aylantirib qadayveradi,
Yurakka otashin nayzalarini.

Yarador arslondek gar tortsam na'ra,
Taqdir holimgamas, ko'zimga qara.
Ko'zimda so'nmagay kurash olovi,
Tulkiga yordamchi bo'lmayman sira.

Onasin xotinga yig'latsa nokas,
Otasin pul deya gar so'ksa bir past.
Bunday hayvonlardan hazar qilaman,
Akasin ortidan uka qilsa qasd.

Bor ekan opasin pulga sotganlar,
Singlisin beayov loyga otganlar.
Haromdan or qilmay to'xtamay bir zum,
Imonsiz, balchiqqa kulib botganlar.

Nasihat emasdir aytgan so'zlarim,
Shunchaki she'r ila dardim so'zladim.
Muxammad qaddini bukolmas hech kim,
Sinovda tik turing aziz do'stlarim.

MUNDARIJA

Katta yo'l boshida.....	3
Inson umri.....	4
Sevgi kuni.....	5
So'nggi qo'ng'iroq.....	7
Aziza.....	8
Qashqadaryo.....	9
Sharros yomg'ir.....	10
Bahor.....	13
Do'st.....	14
Qor jangi.....	15
Fasllar.....	16
Alam.....	17
Men suyangan tog'dir otam.....	18
Buvijon.....	19
O'zbekiston.....	20
Izhor.....	21
Taqdir.....	22
Kenjatoyning arznomasi.....	24
Otamning o'g'itlari.....	25
She'riyat.....	27
Onamga atab.....	28
O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovga bag'ishlanadi.....	29
Ustozimga rahmat.....	30
"Shayton" qizchasan.....	32
Bir onlik sevgi.....	33
Qisqa satrlar.....	34
O'zbekiston mag'rursan.....	35
Qashqadaryo.....	36

Dilsoram.....	37
Hayot darsi.....	38
Onajon.....	39
Sevgim qalbinga ko'mdim.....	41
Anora.....	43
Dilnoma.....	45
Yashayman.....	47
Yetmaydi.....	47
Kuz.....	48
Tingla bir bor.....	49
Yomg'ir nafasi.....	51
O'zbekman.....	52
Yigit yo'li.....	53
To'rtliklar.....	54
Muhabbat.....	55
Telefon.....	56
O'yla.....	58
Nasihat emasdir aytgan so'zlarim.....	60

ADABIY-BADIIY NASHR
MUXAMMAD MAXMUD
(BOBOYEV)
HAYOT DARS
she'rlar

Muharrir: Bahodir Musayev.
Texnik muharrir: Rohila Yuldasheva.
Musahhih: Vohid Ahmad
Dizayner: Bahodir Musayev.

Bosishga ruxsat berildi: 29.11.2017 yil.
Bichimi 60x841/16, "Baltika TAD" garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 3.72
Adadi 100 nusxa.64bet. Buyurtma №682. Erkin narxda.
Shartnoma №16

"Qashqadaryo ko'zgusi OAV" MCHJ nashriyoti.
Nashriyot litsenziyasi AI №244.
180018. Qarshi shahri. Mustaqillik shoh ko'chasi , 22-uy.
Tel: +99875 227-50-05, 99895 680-50-50.

4200c

"Photo Express" ishlab chiqarish korxonasida chop etildi.
Manzil:Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi , 22-uy.

11-2018 11-2018



Boboyev Muxammadbek
Maxmudovich Qashqadaryo
viloyati. Qarshi shahrida 1998-yil
1-dekabrda tug'ilgan.

Qarshi shahar 16-umumiy o'rta
ta'lim maktabini tamomlagan.
Ta'limni Toshkent shahri Mirzo
Ulug'bek nomli texnologiya kasb-
hunar kollejida davom ettirdi.
Kollejni 2017 yilda tamomlagan.

She'rlari davriy matbuotda
nashr etilib kelinmoqda. Ushbu
she'riy to'plam ijodkorning ilk
kitobi.

ISBN 978-9943-4751-1-3



9 789943 475113

